

**LINGVISTIK KOMPETENTSIYA ASOSIDA XORIJIY TILNI
O`QITISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA
O`QITUVCHINING VAZIFALARI**

Ergasheva Rano Axadovna

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi, "Tillarni o`qitish metodikasi kafedrasi" ingliz tili fani katta o`qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o`rta ta`lim xorijiy til ta`limida lingvitik yondashuvga asoslangan darslashni tashkil etish va takomillashtirishda o`qituvchining roli va uning vazifalari, linkvistik kompetensiya ijtimoiy hodisa ekanligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so`zlar: *Kompetensiya, lingvistik kompetensiya, kompetentlik, CEFR, 4K modeli.*

Abstract: *This article defines the role and responsibilities of the teacher in organizing and improving foreign language teaching in secondary education based on a linguistic approach, as well as the concept of linguistic competence as a social phenomenon.*

Keywords: *Competence, linguistic competence, competence, CEFR, 4K model.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и обязанности учителя в организации и совершенствовании преподавания иностранных языков в общем среднем образовании на основе лингвистического подхода, а также лингвистическая компетенция как социальное явление.

Ключевые слова: Компетенция, лингвистическая компетенция, компетентность, CEFR, модель 4K.

Respublikamiz umumta'lim maktablarida ingliz tili darslarini XXI asr ko'nikmalari va 4K modeli (Kommunikatsiya, Kreativlik, Kollaboratsiya, Tanqidiy fikrlash) asosida tashkil etish borasidagi ilmiy-amaliy vazifalar bir qator mutasaddi tashkilotlar ma'sullari tomonidan o'rganilib, chora-tadbirlar ishlab chiqilib, umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagoglariga metodik tavsiyalar berib kelinmoqda.

Bugungi kunda xorijiy til o`qitish ta`limida (kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kompetentsiyaviy yondashuv, ingvistik kompetentlik) kabi atamalardan foydalanish pedagoglar orasida ommalashib bormoqda. Bu tushunchalarning asl mazmuni nimalardan iborat? Ayniqsa, xorijiy tilni o`qitishda qanday natijaviylikka erishish mumkin? kabi savollar paydo bo'lishi tabiiy hol. Bu savollarga javob topadigan bo'lsak, kompetensiya inglizcha so'z bo`lib (bilim, ko'nikmalar, vakolatga ega bo'lish, layoqatli bo'lish) degan bir necha ma'nolarni anglatadi. Layoqatlilik so'zi ingliz tilini

o`rganish ta'limi bilan ham bog'liq bo'lib, xorijiy til (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish) ko'nikmalarini xalqaro baholash mezonlariga muvofiqlashtirilgan bo'lib, CEFR (Yevropa til bilimlari va kompetentsiyalarini baholash tizimi) orqali xorijiy tilni o'rganuvchilarning amaliy til ko'nikmalarini xalqaro miqyosda taqqoslash imkoniyatini yaratadi.

Bu esa, yuqori sinf xorijiy til o'quvchilarida hayotiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish va o'qituvchilarni o'quvchilarga hayotiy ko'nikmalarni o'rgatishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni alohida zaruratga aylantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-2-son, 2018 yil 14 avgustdag'i "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sun qarori, 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sun farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdag'i "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sun qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi 187-sun qarori hamda boshqa tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda.

Lingvistik kompetentlik – umumiyl o'rta ta'limning yuqori sinf o'quvchisining o'rganilayotgan tilning struktural tizimi haqidagi nazariy bilimlarga ega bo'lishi, lingvistik tahlil va mushohada o'tkazish qobiliyati, shuningdek, yangi til vaziyatlarida o'z bilim va ko'nikmalarini samarali ravishda, tushunarli tarzda ifodalashga qodirligi bilan belgilanadi.

Til tizimi deganda esa, o'sha xorijiy tilning grammatika, fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya kabi bilimlarini egallash tushuniladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, tilga oid ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirishga maxsus e'tibor qaratish, o'z fikrini xorijiy tilda ravon, aniq va bemalol ifodalash qobiliyatiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashda, xorijiy til o'qituvchilari quyidagi davlat tomonidan belgilangan talablarni puxta tushunib, ularni amalga oshirishlari zarurdir.

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi umumiyl o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizom va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazmuni;

2. Xalq ta'limi tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning konseptual asoslari, konsepsiylar va huquqiy-me'yoriy asoslar;

3. "2020-2030 yillarda ingliz tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining dasturi"da belgilangan vazifalar;
4. Ta'lim sohasidagi davlat siyosati va uni amalga oshirish bo'yicha ta'lim muassasalarining vazifalari;
5. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS, o'quv dasturlari, darslik, o'quv qo'llanmalar mazmuni;
6. O'quvchilar bilim, ko'nikma, malaka va shakllangan kompetensiyalarini baholash talablarini;
7. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy dars berish metodologiyasi va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni;
8. Ta'lim sohasidagi innovatsion faoliyat asoslarini bilish;
9. Darslarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish;
10. Darslarda o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish va innovatsion baholash pedagogik texnologiyalaridan foydalanish.

Shuningdek, darslarda xalqaro va milliy ta'lim dasturlarining integratsiyalashuvi orqali zamonaviy ta'lim yondashuvlarining nazariy asoslarini o'rganish, raqamli axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarga hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kabi ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

XXI asr ta'limida xorijiy tilni o'qitishning asosiy yo'nalishlari kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarning ijtimoiy va intellektual ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu jarayonda o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borish, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash va xalqaro tajribalarni milliy tizimga integratsiyalash zarur. Shuningdek, o'qituvchining kompetensiyasi uning pedagogik va metodik bilimlarini chuqurlashtirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, shuningdek, o'quvchilarni o'qitishdagi individual yondashuvni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, o'quvchilarni raqobatbardosh, ijtimoiy hayotga tayyor va bilimli avlod sifatida tarbiyalash mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-2-son
2. 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori
3. 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonlari
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori,
- 5.Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi 187-son Qarori
- 6.Ishmuxamedov R.J Innovatsion texnologiyalar yordamida ta`limsamaradorligini oshirish yo`llari Toshkent TDPU, 2004 yil
- 7.Adian Doff. Teach English. Cambridge 1994.
- 8.Jalolov Jm Cet tili tili o'qitish metodikasi. Toshkent 2012.